

## VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi 539- son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi vuritiladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

### Korxona va tashkilotlarning yillar kesimida soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)




#### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi,

(2024- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (96,9 %), tashish va saqlash (83,9 %), savdo (83,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (72,9 %), qurilish (74,8 %), axborot va aloqa (74,7 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (74,6 %), sanoat (70,6 %) va boshqa turdagi xizmatlar (90,3 %) sohalariga to'g'ri keladi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- yanvar holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 42 574 tani tashkil etib, 2022-yilning shu davriga solishtirilganda 10 172 (52 746) taga yoki 80,7 %ga kamaygan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 34,3 % savdo, 18,3 % sanoat, 7,0 % qurilish, 5,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,2 % qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 3,7 % tashish va saqlash, 2,1 % axborot va aloqa, 2,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 22,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


### 1-yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning hududlar kesimida soni va o'sish sur'ati, %

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2024- yil 1- yanvar holatiga 36 462 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxona – 8 000 ta, oilaviy korxona - 5 009 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyat – 23 007 ta, aksiyadorlik jamiyati - 50 ta va boshqa turdagi korxonalar - 396 tani tashkil etadi.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 34,0 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,3 mingtaga yoki 118,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 23,0 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,4 mingtaga yoki 84,1% ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 6 041 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 239 taga yoki 104,1 %ga ko'payganni ko'rish mumkin.



## Yangi tashkil yetilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2023-yil yanvar-dekabr oylarida)




2023- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar 8 248 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Farg'ona shahar (18,1%), Qo'qon shahar (9,8%), Marg'ilon shahar (7,1%), Toshloq tumani (5,7%), Quvasoy shahar (5,6%), Quva tumani (5,2%), Oltiariq tumani (4,6%), Buvayda tumani (4,3%), Dang'ara tumani (4,2%), Qo'shtepa tumani (4,2%), Rishton tumani (4,1%), Uchko'prik tumani (3,8%), Bag'dod tumani (3,8%), O'zbekiston tumani (3,7%), Farg'ona tumani (3,5%), Beshariq tumani (3,4%), Yozyovon tumani (3,1%), Furqat tumani (2,9%), So'x tumani (2,9%) hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, 2024- yil 1-yanvar holatiga ko'ra birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 1-yanvar holatiga ko'ra birlikda)




Hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1-yanvar holatiga ko'ra birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2024- yil 1- yanvar holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 706 tani tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 96 taga yoki 115,7 %ga o'sgan.

■ Ro'yxatdan o'tgan ■ Faoliyat ko'rsatayotgan ■ Yangi tashkil etilgan




### Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

*2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda*



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi**

(1- yanvar holatiga ko'ra, yillar kesimida, birlikda)

	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
<b>Jami</b>	<b>415</b>	<b>455</b>	<b>534</b>	<b>596</b>	<b>501</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	26	27	29	31	20
<b>Sanoat</b>	240	260	284	308	247
<b>Qurilish</b>	10	15	28	34	35
<b>Savdo</b>	74	81	113	126	115
<b>Tashish va saqlash</b>	12	13	14	17	15
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	14	15	14	16	14
<b>Axborot va aloqa</b>	4	4	3	5	8
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	9	9	9	11	11
<b>Boshqa turlar</b>	26	31	40	48	36



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimida soni

(2024- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)


	Ro'yxatga olinganlar	2023- yil yanvar-dekabr	
		yangi tashkil etilgan	tugatilgan
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>706</b>	<b>113</b>	<b>8</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	225	41	3
Qo'qon	85	9	-
Quvasoy	44	7	-
Marg'ilon	41	7	-
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	28	-	-
Qo'shtepa	12	1	1
Bag'dod	19	5	-
Buvayda	15	2	-
Beshariq	24	11	-
Quva	27	4	1
Uchko'prik	34	12	1
Rishton	13	1	-
So'x	9	-	-
Toshloq	20	4	-
O'zbekiston	34	2	1
Farg'ona	28	1	-
Dang'ara	23	1	-
Furqat	18	5	-
Yozyovon	7	-	1

## Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024- yilning 1-yanvar holatiga 7 690 tani tashkil etib, ulardan 5 009 tasi yoki 65,1 % faoliyat yuritmoqda.


## Oilaviy korxonalarning yillar kesimidagi soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni,

(2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni

(birlikda)

	Ro'yxatga olinganlar	2023- yil yanvar-dekabr	
		yangi tashkil etilgan	tugatilgan
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>7 690</b>	<b>1 000</b>	<b>427</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	772	81	31
Qo'qon	624	119	41
Quvasoy	394	95	22
Marg'ilon	473	29	21
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	616	61	23
Qo'shtepa	214	40	9
Bag'dod	394	29	19
Buvayda	331	17	20
Beshariq	323	33	17
Quva	272	38	23
Uchko'prik	378	37	7
Rishton	746	91	52
So'x	171	54	4
Toshloq	271	21	12
O'zbekiston	483	53	40
Farg'ona	290	46	15
Dang'ara	515	99	46
Furqat	336	44	19
Yozyovon	87	13	6

**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.